

“RAQAMLI O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI VA LEGAL TECH RIVOJLANISHI

Nimatullayev Azizbek Akmal og‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda LegalTechni qanchalik rivojlanganligi va bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar va bu sohaning kelajakdagi istiqbollari haqida ma’lumot beradi. LegalTech – bu huquq sohasida texnologiyalarning qo‘llanishi , huquqiy xizmatlarni avtomatlashtirish va natijadorligini oshirish bo‘yicha yechimlarni o‘z ichiga oladi.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030 “ strategiyasi doirasida O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari , bu maqsadlarni amalga oshirish zimmasiga yuklatilgan o‘rganlar , shu kungacha amalga oshirilgan ishlar va kelajakda bu strategiyaning xalqqa , davlatga qanchalik manfaatli bo‘lishi haqida fikrlarni o‘z ichiga oladi. Natijada,”Raqamli O‘zbekiston – 2030 “ strategiyasi samaradorligi va Legal Tech rivojlanishi bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar : Raqamli O‘zbekiston, strategiya , LegalTech , davlat o‘rganlar va mansabdor shaxslar , vazifa , maqsad.

“DIGITAL UZBEKISTAN-2030 STRATEGY” AND LEGAL TECH DEVELOPMENT

Nimatullayev Azizbek Akmal o‘g‘li

Tashkent State university of Law

Private law Faculty

Annotation: this study provides information on how far Legaltech has developed in Uzbekistan and the work being done in this area and the future prospects of this area.

LegalTech includes solutions for the application of technologies in the field of law , automation of legal services and increasing the effectiveness.

The goals set by Uzbekistan within the framework of the digital Uzbekistan – 2030 strategy , the studies assigned to the implementation of these goals , the work carried out to this day and the ideas about how negative this strategy will be for the people and the state in the future. As a result, recommendations on the effectiveness of the Strategy “ Digital Uzbekistan – 2030 ” and the development of Legal Tech are presented. The goals set by Uzbekistan within the framework of the digital Uzbekistan – 2030 strategy .

Keywords: digital Uzbekistan, strategy, LegalTech , state studies and officials , Task, Purpose.

“СТРАТЕГИЯ ЦИФРОВОГО УЗБЕКИСТАНА-2030” И РАЗВИТИЕ ЮРИДИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Ниматуллаев Азизбек Акмал огли

Ташкентский государственный

Факультет частного права

Аннотация: в данном исследовании представлена информация о том, насколько далеко продвинулся Legaltech в Узбекистане, о работе, проводимой в этой области, и о будущих перспективах этого направления. LegalTech включает в себя решения для применения технологий в области права, автоматизации юридических услуг и повышения эффективности.

Цели, поставленные Узбекистаном в рамках стратегии "Цифровой Узбекистан – 2030", исследования, направленные на реализацию этих целей, работа, проделанная по сей день, и идеи о том, насколько негативной эта стратегия будет для людей и государства в будущем. В результате представлены рекомендации по эффективности Стратегии “Цифровой Узбекистан – 2030” и развитию юридических технологий. Цели, поставленные Узбекистаном в рамках стратегии "Цифровой Узбекистан – 2030".

Ключевые слова: цифровой Узбекистан, стратегия, юридические технологии, государственные исследования и чиновники, Задача, предназначение.

I.Kirish

O'zbekiston Respublikasi shakilanyotgan global axborotjamiyatida munosib o'rinni egallashga intilmoqda. Ushbu maqsadlarga erishish uchun mamlakat hukumati tomonidan O'zbekistonda axborotlashtirish jarayonlarini faollashtirish, zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini tez suratda rivojlantirish, ularni iqtisodiyoy va jamiyatning barcha sohalarida joriy etish va foydalanishning strategik ustivorliklari belgilandi.

Vazirlar Mahkamasining Respublika va mahaliy ijro o'rganlarining axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish uchun mas'ul xodimlar malakasini oshirish va reyting baholashni tashkil etish chora – tadbirlari to'g'risida “ 208 – son qarori qabul qilingan. Buning natijasida natijasida yuqori va mahaliy ijroiya o'rganlarining axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi uchun ma'sul bolga o'rganlarining malakasini uch yilda bir oshirish va ularni ma'lakasini reytingli baholab boorish belgilangan.

SHuningdek, bu qaror bilan hodimlarning malakasini oshirish barcha turdagi ta'lim tashkilotlarida Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturlari asosida amalga oshirilishi belgilangan. Vazirlik tomonidan electron hukumat tizimini joriy etish, raqamli iqtisodiyot, axborot xavsizligini taminlash, AKT infratuzilasi tashkil etish shuningdek davlat o'rganlari faolyatiga AKT ni joriy etish yo'nalishlari bo'yicha na'munaviy o'quv dasturlari tasdiqlandi.

SHuningdek bugungi kunda mamlakatimizda raqamli texnologiyalar rivojlanishi huquq sohasiga ham ta'sir o'tkazmoqda. Bu ta'sirni Legal Tech fanida ko'rishimiz mumkun. Xo'sh Legal Tech o'zi nima va uning huquq sohasidagi ahamyati qanday degan savollar tug'iladi. Legal Tech bu – huquqiy texnologiyalar, huquqiy xizmatlar va huquqiy jarayonlarni samaraliroq va qulayroq qilish uchun innovatsion texnologiyalarni qo'llashni anglatadi. Bu soha, raqamli yechimlar, dasturiy ta'minot va avtomatlashtirish orqali

huquqiy xizmatlarni taklif qilish va ularni boshqarishni osonlashtiradi. Legal Tech tushunchasi huquqiy faolyatda axborot texnologiyalari va dasturiy ta'minotdan foydalanishni o'z ichiga oladi. So'ngi yillarda "E – sud", "Adliya xizmatlari yagona portal" kabi tizimlar ishga tushurilib, yuridik xizmatlar aholiga qulay va tezkor tarzda taqdim etilmoqda.

II . Metodologiya

Ushbu maqola quydagi manbalar va metodologiyalar asosida olib borildi:

Normativ – huquqiy tahlil: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 5 – oktabrdagi PF – 6079 – sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" Farmoni, 2021 –

2025 – yillarga mo'ljallangan "Axborot texnologiyalarini rivojlantirish konsepsiyasi", va Adliya vazirligining elektron xizmatlar to'g'risidagi hujjatlari asosida.

Tahliliy – uslubiy manbalar : BMT (UN), Jahon banki (World Bank), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), va yevropaa ittifoqi (EU e – Government Report, 2023) ma'lumotlari tahlil qilindi.

Empirik yondashuv : 2020 – 2024 – yillar oralig'ida raqamli xizmatlardan foydalanganlik dinamikasi, sud va notarial faolyatda elektron tizimlar joriy etilishi statistik jihatdan baholandi.

Taqqoslam tahlili : Estoniya, Singapur, Janubiy Koreya, Rossiya va Qozog'iston Kabi davlatlarning Legal Tech ekotizimlari bilan O'zbekiston tajribasi solishtirildi.

III . Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida so'ngi yillarda quyidagi natijalarga erishilgan:

Davlat boshqaruvi raqamlashtirildi. 2025 – yil holatiga ko'ra, 300 dan ortiq davlat xizmatlari my.gov.uz portal orqali onlayn shaklda taqdim etilmoqda. Bu orqali esa aholining vaqtini va pul mablag'larini tejashlari uchun sharoit yaratildi.

Sud – jarayonlari , notarial xizmatlar va ma’lumotlar almashinuvi jarayonlari raqamli ko’rinishga o’tmoqda. Sud huquq tizimi transformatsiya qilindi . “ E – SUD “ , “ E – Natarius “ va “ E – Ijro “ tizimlari faolyat ko’rsatmoqda . 2024 – yilda da’vo arizalarining 67 foizi elektron shakilda topshirilgan .

“Legal Tech “ yo’nalishi doirasida huquqiy xizmatlar (masalan, shartnomalarni avtomatlashtirish , hujjatlarni raqamli shakilda yuritish) kuchaymoqda. Huquqiy xizmatlarga bo’lgan raqamli platformalarning joriy etilishi , fuqarolar va korxonalarning onlayn huquqiy xizmatlardan foydalanish darajasini oshiradi. Masalan, 2022 – yilda “ E – Government Services Adoption in Uzbekistan “ nomli tadqiqotda 390 respondentga o’tkazilgan so’ro’vda, xizmat sifatiga ishonch va foyda kutish huquqiy onlayn xizmatlardan foydalanish niyatiga eng katta ta’sir qiluvchi omillar ekanligi aniqlangan.

Legal Tech startaplar rivojlanmoqda . “ Lex Uz “ , “ Legal AI “ , “ E – Advokat “ kabi platformalar huquqiy masalalarni avtomatik tahlil qilish , hujjat tuzish va shartnoma jarayonlarini soddalashtirishni ta’minlamoqda .

Ochiq ma’lumotlar tizimi mustahkamlandi . 2023 – yilda “ data . gov . uz “ portal orqali 2 mingdan ortiq ochiq ma’lumot to’plamlaru joylashtirildi , bu korrupsiyaga qarshi kurashda muhim omil bo’ldi.

Raqamli savodxonlik oshmoqda. TDYU, TATU va IT Park hamkorlikda yuridik kadrlar uchun “ Legal Tech Bootcamp “ dasturlari yo’lga qo’yildi.

Rasmiy reytinglarda o’sish va xalqaro pozitsiyaning yaxshilanishi :

Jahon Banki hisobotiga ko’ra , O’zbekiston “ Digital Government Readiness Index “ bo’yicha MDH mamlakatlari orasida 2- o’rinda qayd etilgan.

2022 – yilda O‘zbekistonda elektron hukumat rivojlanishi bo‘yicha United Nations ning E – Government Survey reytingida 69 – o‘rinni egalladi – bu oldingi yillarga nisbatan sezilarli o‘shishni ko‘rsatadi.

2024 – yil oxirida mamlakat yana 6 pozitsiya yuqoriga ko‘tarilganligi va 2030 – yilgacha TOP – 30 davlatlar qatoriga kirish maqsad qilinganligi e‘lon qilindi.

IV. Muhokama

“ Raqamli O‘zbekiston – 2030 “ strategiyasi doirasida huquqiy sohadagi raqamlashtirish , xususan “ Legal Tech “ yechimlari joriy etilishi bilan birga bir qator muhim garovlar va cheklovlar ham yuzaga kelmoqda. Quyida ushbu jarayonni tahlil qilamiz .

1. Institutsional va huquqiy moslashuv .

2020 – yilda qabul qilingan “ Digital Uzbekistan 2030 “ strategiyasi O‘zbekistonda davlat xizmatlari va infiratuzeilmaning raqamlashtirilishini rag‘batlantirdi. Biroq, OECD tashkilotining hisobotida ta‘kidlanishicha, xuquqiy sekyor va huquqiy sohada raqamli savodxonlik yetarli darajada emas, institutlararo hamkorlik va huquqiy me‘yorlar to‘liq shakillanmagan. Shu bilan birga , davlat organlarida raqamli transformatsiya bo‘yicha javobgar shaxslar tayinlanganligi ijobiy o‘zgarishdir.

Ushbu jihatlar “ Legal Tech “ sohasida huquqiy yechimlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan insitutsional poydevor sifatida xizmat qiladi – biroq xozircha aniqlik va ko‘lam jihatdan cheklovlar mavjud.

2. Huquqiy xizmatlar zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyasi.

Legal Tech vositalari – suniy intellect, avtomatlashtirilgan huquqiy hujjat tahlili, blockchain asosida shartnomalar va onlayn sud jarayonlari – huquqiy xizmatlarni tezlashtirish, xarajatlarni kamaytirish va fuqarolarga qulaylik yaratishda katta potentsialga ega. Jami raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan birga bu imkoniyatlar ham oshmoqda. Masalan, elektron hukumat tizimlari rivojlangan mamlakatlarda Legal tech yechimlari orqali huquqiy jarayonlar soddalashtirilgani , fuqarolar va korxonalar

uchun ko'proq shaffoflik yaratilgani kuzatilgan. O'zbekistonda ham " Raqamli hukumat " platformalarining kengayishi va " IT Park " infrastrukturasi Legal Tech ekotizimining shakillanishiga zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, huquqiy jarayonlarda texnologiya bilan integratsiya qilishda quyidagi muammolar uchraydi:

Raqamli malaka darajasi baholanishi va ongli foydalanuvchilarning yetishmasligi. OECD hisobotida O'zbekistonda kampiyuterlar va xodimlar orasida raqamli savodxonlikning mintaqaviy o'rta darajadan pastligi qayd etilgan.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasining barcha hududlarda barqaror bo'lishi – ayniqsa qishloq joylarda raqamli cheklovlar mavjudligi " Digital Economi " tahlilida ko'rsatilgan.

Xususiy sektor va davlat o'rganlari o'rtasida hamkorlikni kengaytirish : startaplar, huquqiy texnologiya kompaniyalari, oliy ta'lim muassasalari va davlat tizimlari o'rtasida ekotizim yaratish – " Digital Skills for Private Sector Competitiveness " hisobotida tavsiya etilgan.

V. Xulosa

" Raqamli O'zbekiston – 2030 " strategiyasi mamlakatni yangi, raqamli asirga olib kiruvchi fundamental dasturdir. Uning ijrosi natijasida davlat boshqaruvi, huquqni qo'llash tizimi, va fuqarolarga xizmat ko'rsatish jarayonlari sezilarli darajada avtomatlashtirildi.

Legal Tech sohasi esa ushbu transformatsiyaning yuragi sifatida huquq sohasida innovatsiyalarni joriy etmoqda. Shu bilan birga, bu yo'nalish bo'yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish, milliy huquq bazasi va axborot xavfsizligi standartlarini takomillashtirish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Kelajakda O'zbekistonning " raqamli davlat " imidji hamda huquqiy – texnologik integratsiyasi mustahkamlanib, bu strategiya orqali nafaqat milliy, balki mintaqaviy va global maydonda ham raqobatdosh pozitsiyaga ega bo'ladi. Qisqa qilib aytganda

kelajakda O'zbekistonning raqamli huquqiy tizimi mintaqaviy modelga aylanishi kutilmoqda.

Foydalanilga adabiyotlar/Литература/References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2020 – yil 5 – oktabr, PF – 6079 – son, “ Raqamli O'zbekiston – 2030 “ strategiyas.
2. O'zbekiston Respublikasi “ Axborotlashtirish to'g'risida “ gi qonuni, 2023 – yil.
3. World Bank. Digital Government in Uzbekistan : Progress Report 2024.
4. UN E – Government Development Index Report 2022.
5. Adliya vazirligi. “ Raqamli yuridik xizmatlarni rivojlantirish konsepsiyasi “ 2023 – yil.
6. OECD. Digital transformation Strategy Framework 2023.
7. IT Park Uzbekistan. Legal Tech Startup Ecosystem Review 2024.
8. EU Digital Governance Report 2023.
9. Korruptsiyaga qarshi kurash agentligi hisobotlari 2024.
10. TDYU ilmiyjurnali. “ Legal Tech – huquq tizimida raqamli yondashuvlar “ , 2024 – yil 2 – son.